XALQ DEPUTATLARI OQDARYO TUMANI KENGASHINING
Q A R O R I

2025-yil 25-oktabr VII-18-116-7-92-K/25 Oqdaryo tumani

Oqdaryo tumanida aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalarini 2026-yilda ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish to‘g‘risida

“Aholi bandligi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 9-bobi hamda Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5-dekabrdagi 965-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomga asosan 2026-yil uchun ish o‘rinlarini band qilib qo‘yish maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 24-moddalariga asosan xalq deputatlari Oqdaryo tumani Kengashining yettinchi chaqiriq o‘n sakkizinchi sessiyasi

QAROR QILADI:

1. Quyidagilar:

a) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlari faoliyatini 2030-yilga qadar rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” 2025-yil 23-iyundagi PF-98-son Farmoniga asosan ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish vakolatlari xalq deputatlari mahalliy Kengashlariga o‘tkazilganligi;

b) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Mehnat munosabatlari va kasbga tayyorlash tizimini takomillashtirish hamda ish beruvchilarni rag‘batlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2025-yil 4-avgustdagi PF-126-son Farmoniga asosan:

xo‘jalik yurituvchi subyektlar faqat nogironligi bo‘lgan shaxslar, oilaviy (maishiy) zo‘ravonlikdan jabrlangan shaxslar, kambag‘al oilalar reyestridagi oilalarning a’zolari, muqobil joylashtirish shakllarida tarbiyalangan yetim shaxslar, ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan shaxslar uchun ish o‘rinlarining majburiy zaxiralari shakllantirilishi,

bunda majburiy zaxiralash xodimlar umumiy sonining 3 foizidan oshmasligi hamda xodimlari soni 100 nafardan ortiq bo‘lgan tashkilotlarga nisbatan qo‘llanilishi;

byudjet tashkilotlari va davlat ulushi 50 foizdan yuqori bo‘lgan korxonalar faqat nogironligi bo‘lgan shaxslar, oilaviy (maishiy) zo‘ravonlikdan jabrlangan shaxslar, kambag‘al oilalar reyestridagi oilalarning a’zolari, muqobil joylashtirish shakllarida tarbiyalangan yetim shaxslar, ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan shaxslar, jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan hamda odam savdosidan jabrlangan shaxslar uchun ish o‘rinlarining majburiy zaxiralari shakllantirilishi, bunda majburiy zaxiralash xodimlar umumiy sonining 7 foizidan oshmasligi hamda xodimlari soni 20 nafardan ortiq bo‘lgan tashkilotlarga nisbatan tatbiq etilishi belgilanganligi rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Oqdaryo tumani Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi hamda Oqdaryo tuman “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazining Oqdaryo tumani hududidagi tashkilotlar bo‘yicha 2026-yilda aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalari uchun ish o‘rinlarini belgilash to‘g‘risidagi quyidagi takliflari ma’qullansin:

Xodimlar soni 20 nafardan ortiq bo‘lgan davlat tashkilotlarida majburiy zaxiralanadigan ish o‘rinlari soni xodimlar umumiy sonining yetti foizidan oshmagan miqdorda hamda xodimlar soni 100 nafardan ortiq bo‘lgan xo‘jalik yurituvchi subyektlarda (davlat ulushi 50 foizdan yuqori bo‘lgan korxonalar bundan mustasno) majburiy zaxiralanadigan ish o‘rinlari soni xodimlar umumiy sonining uch foizidan oshmagan miqdorida kelgusi yil uchun 263 ta ish o‘rinlarini zaxiraga qo‘yish, jumladan:

nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun 14,1 foiz (37 kishi);

oilaviy (maishiy) zo‘ravonlikdan jabrlangan shaxslar uchun 1,9 foiz (5 kishi);

kambag‘al oilalar reyestridagi oilalarning a’zolari uchun 80,9 foiz (213 kishi);

muqobil joylashtirish shakllarida tarbiyalangan yetim va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan shaxslar uchun 1,9 foiz (5 kishi);

jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan shaxslar uchun 0,7 foiz (2 kishi);

odam savdosidan jabrlangan shaxslar uchun 0,4 foiz (1 kishi) miqdorida ish o‘rinlarining majburiy zaxiralari shakllantiriladi.

3. 2026-yilda aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalarini ishga joylashtirish maqsadida quyidagilar:

davlat tashkilotlari (byudjet tashkilotlari va davlat ulushi 50 foizdan yuqori bo‘lgan korxonalar) tomonidan majburiy zaxira qo‘yiladigan ish o‘rinlarining manzilli ro‘yxati 1-ilovaga muvofiq;

xodimlarining ro‘yxatdagi o‘rtacha yillik soni yuz nafardan ortiqni tashkil etadigan xo‘jalik yurituvchi subyektlar (davlat ulushi 50 foizdan yuqori bo‘lgan korxonalar bundan mustasno) tomonidan majburiy zaxira qo‘yiladigan ish o‘rinlarining manzilli ro‘yxati 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Korxonalar, tashkilotlar va muassasalar rahbarlari:

zaxiraga qo‘yiladigan ish o‘rinlari umumiy sonining kamida yigirma besh foizi miqdorida zaxiraga qo‘yiladigan ish o‘rinlarining tayyorligini yil boshlanishidan oldin o‘n kundan kechiktirmay ta’minlashi, shuningdek, bu haqda yil boshlangunga qadar Oqdaryo tumani Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limini xabardor qiladi;

ish o‘rinlarining qolgan qismini zaxiraga qo‘yish tashkilot (ish beruvchi) tomonidan kalendar yilning birinchi choragi mobaynida ta’minlashi, bu haqda Oqdaryo

tumani (shahar) Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limini birinchi chorak tamom bo‘lganidan so‘ng, 10 kundan kechikmay xabardor qiladi;

ishga joylashtirish to‘g‘risida Oqdaryo tumani Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limiga har oyda, hisobot oyidan keyingi oyning 5-sanasiga qadar axborot taqdim etadi.

Zaxiraga qo‘yiladigan ish o‘rinlarini saqlash shartlari O‘zbekiston Respublikasining “Aholi bandligi to‘g‘risida”gi Qonunining 40-moddasiga muvofiq belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Aholini tadbirkorlikka jalb qilish va bandligini ta’minlash uchun moliyaviy yordamlar ajratish tizimini takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2025-yil 14-fevraldagi PQ-64-son qaroriga muvofiq aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalaridan bo‘lgan shaxslarni ish o‘rinlarining belgilangan eng kam sonidan ortiq miqdorda ishga qabul qilish uchun ish beruvchilarga – har bir xodim uchun 12 oy davomida har oyda bazaviy hisoblash miqdorining 2 baravari miqdorida subsidiya mablag‘larini to‘lab berilsin.

6. O‘zbekiston Respublikasining “Aholi bandligi to‘g‘risida”gi Qonuni 3-, 13-, 34-, 38-, 39-, 40-, 41-moddalariga asosan aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalariga eng kam miqdordagi ish joylarini yaratish yuzasidan qabul qilingan mazkur qarorni bajarmaganlik uchun ish beruvchilar qonunchilikda belgilangan tartibda javobgarlikka tortiladi.

7. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5-dekabrdagi 965-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Nizomning 21-bandi, 2-qismiga asosan, muhtojlar uchun ish o‘rinlarini zaxiraga qo‘yish bo‘yicha Oqdaryo tumani Kengashining qarori bajarilmaganligi uchun jarima to‘lash tashkilotni zaxiraga qo‘yiladigan ish o‘rinlarining belgilangan sonini yaratish bo‘yicha majburiyatdan ozod qilmaydi.

8. Oqdaryo tumani Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi (D.O.Mamadiyarova):

besh kun muddatda ushbu qaror nusxasini 1 va 2-ilovalarda ko‘rsatilgan tashkilotlar rahbarlarining e’tiboriga yetkazsin va ushbu qaror bajarilishi ustidan nazoratni ta’minlasin.

Aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalari uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash bo‘yicha xalq deputatlari Oqdaryo tumani Kengashining ushbu qarori bajarilmaganda, shuningdek, ularni ishga qabul qilish asossiz ravishda rad etilganligi uchun tashkilotlarning mansabdor shaxslariga qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ma’muriy javobgarlikka tortish ta’minlansin.

9. Mazkur qaror ommaviy axborot vositalarida e’lon qilinsin hamda hokimlikning rasmiy veb- saytiga joylashtirilsin.

10. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (E.Ashurov) zimmasiga yuklatilsin.

11. Mazkur qaror qabul qilingan kundan kuchga kiradi.

Sessiya raisi



ADILOVA DILDORA ISRAYILOVNA

Xalq deputatlari Oqdaryo tumani Kengashining
2025-yil 25-oktabrdagi
VII-18-116-7-92-K/25 -son qaroriga
1-ilova

Oqdaryo tumanida 2026-yilda aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalarini ishga joylashtirish uchun davlat tashkilotlari *(byudjet tashkilotlari va davlat ulushi 50 foizdan yuqori bo‘lgan korxonalar)* **tomonidan majburiy zaxira qo‘yiladigan ish o‘rinlarining manzilli**
RO‘YXATI

T/r	Tashkilot nomi	Tashkilotning STIRi	Shtat jadvali bo‘yicha xodimlarning umumiy soni	shundan,	Kelgusi yil uchun zaxiraga qo‘yladigan ish o‘rinlari soni	shu jumladan:					
				nogironligi bo‘lgan shaxslar soni		nogironligi bo‘lgan shaxslar	oilaviy (maishiy) zo‘ravonlikdan jabrlangan shaxslar	Kambag‘al oilalar reyestridagi oilalarning a’zolari	muqobil joylashtirish shakllarida tarbiyalangan yetim, ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan shaxslar	jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan shaxslar	odam savdosidan jabrlangan shaxslar
JAMI:			**7519**	**45**	**237**	**35**	**3**	**193**	**3**	**2**	**1**
1	"1-SON DAVLAT MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTI" DAVLAT MUASSASASI	207322048	22	0	1			1			
2	"3-SON MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTI" DAVLAT MUASSASASI	207016664	29	1	1			1			

3	"4-SON DAVLAT MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI" DAVLAT MUASSASASI	207016672	41	0	2			2			
4	"5-SON DAVLAT MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI" DAVLAT MUASSASASI	207061950	29	0	1			1			
5	"6-SON DAVLAT MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI" DAVLAT MUASSASASI	207066990	33	1	1			1			
6	"7-SON DAVLAT MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI" DAVLAT MUASSASASI	206909273	42	1	1			1			
7	"8-SON DAVLAT MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI" DAVLAT MUASSASASI	207061943	32	2	1			1			
8	"9-SON DAVLAT MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI" DAVLAT MUASSASASI	206909280	35	1	1			1			
9	"10-SON DAVLAT MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI" DAVLAT MUASSASASI	207033842	34	0	1			1			
10	"11-SON DAVLAT MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI" DAVLAT MUASSASASI	207034374	37	0	1			1			
11	"12-SON DAVLAT MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI" DAVLAT MUASSASASI	207034381	31	0	1			1			
12	"13-SON DAVLAT MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI"	207066801	37	1	1			1			

	DAVLAT MUASSASASI										
13	"14-SON DAVLAT MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI" DAVLAT MUASSASASI	207063315	39	0	1	1					
14	"16-SON DAVLAT MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI" DAVLAT MUASSASASI	207293813	33	0	1			1			
15	"18-SON DAVLAT MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI" DAVLAT MUASSASASI	207066778	33	2	1			1			
16	"19-SON DAVLAT MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI" DAVLAT MUASSASASI	207033834	45	3	2	1		1			
17	"20-SON DAVLAT MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI" DAVLAT MUASSASASI	207224873	38	0	1			1			
18	"21-SON DAVLAT MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI" DAVLAT MUASSASASI	207066785	32	1	1			1			
19	"22-SON DAVLAT MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI" DAVLAT MUASSASASI	207061935	26	2	1			1			
20	"24-SON DAVLAT MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI" DAVLAT MUASSASASI	207066793	43	1	2	1		1			
21	"25-SON DAVLAT MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI" DAVLAT MUASSASASI	207066754	34	1	1			1			

22	"26-SON DAVLAT MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTI" DAVLAT MUASSASASI	207067049	34	0	1			1			
23	"27-SON DAVLAT MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTI" DAVLAT MUASSASASI	207035562	35	2	1			1			
24	"28-SON DAVLAT MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTI" DAVLAT MUASSASASI	207034366	31	0	1			1			
25	"30-SON DAVLAT MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTI" DAVLAT MUASSASASI	207287684	30	1	1			1			
26	"32-SON DAVLAT MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTI" DAVLAT MUASSASASI	207066761	37	0	1	1					
27	"34-SON DAVLAT MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTI" DAVLAT MUASSASASI	207067032	31	0	1			1			
28	"36-SON MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTI" DAVLAT MUASSASASI	207067000	38	3	2			2			
29	"OQDARYO TUMANI 1-UMUMIY O‘RTA TA’LIM MAKTAB" DAVLAT MUASSASASI	203321559	57	5	1			1			
30	"OQDARYO TUMANI 2-UMUMIY O‘RTA TA’LIM MAKTABI" DAVLAT MUASSASASI	203321566	106	1	3	1		2			

31	"OQDARYO TUMANI 3-UMUMIY O‘RTA TA’LIM MAKTABI" DAVLAT MUASSASASI	206908844	38	4	1			1			
32	"OQDARYO TUMANI 4-UMUMIY O‘RTA TA’LIM MAKTABI" DAVLAT MUASSASASI	206908852	66	0	2			2			
33	"OQDARYO TUMANI 5-UMUMIY O‘RTA TA’LIM MAKTABI" DAVLAT MUASSASASI	206908869	69	0	2			2			
34	"OQDARYO TUMANI 6-UMUMIY O‘RTA TA’LIM MAKTABI" DAVLAT MUASSASASI	203321574	101	2	3	1		2			
35	"OQDARYO TUMANI 7-UMUMIY O‘RTA TA’LIM MAKTABI" DAVLAT MUASSASASI	203306132	83		2			2			
36	"OQDARYO TUMANI 8-UMUMIY O‘RTA TA’LIM MAKTABI" DAVLAT MUASSASASI	206908876	71	1	3	1		2			
37	"OQDARYO TUMANI 9-UMUMIY O‘RTA TA’LIM MAKTAB" DAVLAT MUASSASASI	203321542	71	3	3	1		2			
38	"OQDARYO TUMANI 10-UMUMIY O‘RTA TA’LIM MAKTAB" DAVLAT MUASSASASI	206908884	66	1	1			1			
39	"OQDARYO TUMANI 11-UMUMIY O‘RTA TA’LIM MAKTAB" DAVLAT MUASSASASI	206908891	110	2	2	1		1			

40	"OQDARYO TUMANI 12-UMUMIY O‘RTA TA’LIM MAKTABI" DAVLAT MUASSASASI	206908909	59	1	1			1			
41	"OQDARYO TUMANI 13-UMUMIY O‘RTA TA’LIM MAKTAB" DAVLAT MUASSASASI	206908916	54	1	2	1		1			
42	"OQDARYO TUMANI 14-UMUMIY O‘RTA TA’LIM MAKTAB" DAVLAT MUASSASASI	206908924	44	1	2			2			
43	"OQDARYO TUMANI 15-UMUMIY O‘RTA TA’LIM MAKTABI" DAVLAT MUASSASASI	206908931	83	1	3	1		2			
44	"OQDARYO TUMANI 16-UMUMIY O‘RTA TA’LIM MAKTABI" DAVLAT MUASSASASI	206908948	45	0	2			2			
45	"OQDARYO TUMANI 17-UMUMIY O‘RTA TA’LIM MAKTAB" DAVLAT MUASSASASI	206908955	33	2	1			1			
46	"OQDARYO TUMANI 18-UMUMIY O‘RTA TA’LIM MAKTAB" DAVLAT MUASSASASI	206908963	77	4	2	1		1			
47	"OQDARYO TUMANI 19-UMUMIY O‘RTA TA’LIM MAKTAB" DAVLAT MUASSASASI	206908970	59	2	2			2			
48	"OQDARYO TUMAN 20 - UMUMIY O‘RTA TA’LIM MAKTABI" DAVLAT MUASSASASI	206908987	85	2	2			2			

49	"OQDARYO TUMANI 21-UMUMIY O‘RTA TA’LIM MAKTABI" DAVLAT MUASSASASI	203306164	46	2	2			2			
50	"OQDARYO TUMAN 22-UMUMIY O‘RTA TA’LIM MAKTABI" DAVLAT MUASSASASI	206908994	90	0	3	1		2			
51	"OQDARYO TUMANI 23-UMUMIY O‘RTA TA’LIM MAKTABI" DAVLAT MUASSASASI	206909004	60	0	2	1		1			
52	"OQDARYO TUMANI 24-UMUMIY O‘RTA TA’LIM MAKTAB" DAVLAT MUASSASASI	206909012	58	2	1			1			
53	"OQDARYO TUMANI 25-UMUMIY O‘RTA TA’LIM MAKTAB" DAVLAT MUASSASASI	207130366	68	1	2			2			
54	"OQDARYO TUMANI 26-UMUMIY O‘RTA TA’LIM MAKTABI" DAVLAT MUASSASASI	206909029	66	1	2			2			
55	"OQDARYO TUMANI 27-UMUMIY O‘RTA TA’LIM MAKTABI" DAVLAT MUASSASASI	206909036	48	1	2			2			
56	"OQDARYO TUMANI 28-UMUMIY O‘RTA TA’LIM MAKTAB" DAVLAT MUASSASASI	203323531	77	2	2	1		1			
57	"OQDARYO TUMANI 29-UMUMIY O‘RTA TA’LIM MAKTAB" DAVLAT MUASSASASI	206909044	68	2	2			2			
58	"OQDARYO TUMANI 30-UMUMIY O‘RTA	206909051	79	4	2	1		1			

	TA’LIM MAKTAB" DAVLAT MUASSASASI										
59	"OQDARYO TUMANI 31-UMUMIY O‘RTA TA’LIM MAKTABI" DAVLAT MUASSASASI	206909068	54	1	2	1		1			
60	"OQDARYO TUMANI 32-UMUMIY O‘RTA TA’LIM MAKTAB" DAVLAT MUASSASASI	206909075	82	0	3			3			
61	"OQDARYO TUMANI 33-UMUMIY O‘RTA TA’LIM MAKTAB" DAVLAT MUASSASASI	206909083	56	0	2			2			
62	"OQDARYO TUMANI 34-UMUMIY O‘RTA TA’LIM MAKTAB" DAVLAT MUASSASASI	206909090	28	1	1			1			
63	"OQDARYO TUMANI 35-UMUMIY O‘RTA TA’LIM MAKTAB" DAVLAT MUASSASASI	206909108	61	0	2	1		1			
64	"OQDARYO TUMANI 36-UMUMIY O‘RTA TA’LIM MAKTABI" DAVLAT MUASSASASI	206909115	38	2	1			1			
65	"OQDARYO TUMANI 37-UMUMIY O‘RTA TA’LIM MAKTAB" DAVLAT MUASSASASI	206909123	35	0	1			1			
66	"OQDARYO TUMANI 38-UMUMIY O‘RTA TA’LIM MAKTAB" DAVLAT MUASSASASI	206909130	127	6	3	1		2			
67	"OQDARYO TUMANI 39-UMUMIY O‘RTA TA’LIM MAKTAB" DAVLAT MUASSASASI	206909147	62	4	3			3			

68	"OQDARYO TUMANI 40-UMUMIY O‘RTA TA’LIM MAKTAB" DAVLAT MUASSASASI	206909154	89	5	3			3			
69	"OQDARYO TUMANI 41-UMUMIY O‘RTA TA’LIM MAKTAB" DAVLAT MUASSASASI	206909162	73	1	3	1		2			
70	"OQDARYO TUMANI 42-UMUMIY O‘RTA TA’LIM MAKTAB" DAVLAT MUASSASASI	206909179	56	1	2	1		1			
71	"OQDARYO TUMANI 43-UMUMIY O‘RTA TA’LIM MAKTAB" DAVLAT MUASSASASI	206909186	50	0	2			2			
72	"OQDARYO TUMANI 44-UMUMIY O‘RTA TA’LIM MAKTAB" DAVLAT MUASSASASI	206909194	70	0	2			2			
73	"OQDARYO TUMANI 45-UMUMIY O‘RTA TA’LIM MAKTAB" DAVLAT MUASSASASI	206909202	155	3	4	1		3			
74	"OQDARYO TUMANI 46-UMUMIY O‘RTA TA’LIM MAKTAB" DAVLAT MUASSASASI	206909219	70	2	2			2			
75	"OQDARYO TUMAN 47- UMUMTA’LIM MAKTABI" DAVLAT MUASSASASI	206909226	77	2	3	1		2			
76	"OQDARYO TUMANI 48-UMUMIY O‘RTA TA’LIM MAKTAB" DAVLAT MUASSASASI	206909234	44	1	1			1			
77	"OQDARYO TUMANI 49-UMUMIY O‘RTA TA’LIM MAKTAB" DAVLAT	206909241	31	0	1			1			

	MUASSASASI										
78	"OQDARYO TUMANI 50-UMUMIY O‘RTA TA’LIM MAKTAB" DAVLAT MUASSASASI	206909258	41	2	1	1					
79	"OQDARYO TUMANI 51-UMUMIY O‘RTA TA’LIM MAKTAB" DAVLAT MUASSASASI	206909265	75	3	2			2			
80	"OQDARYO TUMANI 53-UMUMIY O‘RTA TA’LIM MAKTAB" DAVLAT MUASSASASI	206876689	86	1	2			2			
81	"OQDARYO TUMANI 54-UMUMIY O‘RTA TA’LIM MAKTAB" DAVLAT MUASSASASI	207285269	60	0	2			2			
82	"OQDARYO TUMANI 55-UMUMIY O‘RTA TA’LIM MAKTAB" DAVLAT MUASSASASI	207288533	36	1	1			1			
83	"OQDARYO TUMANI 56-UMUMIY O‘RTA TA’LIM MAKTAB" DAVLAT MUASSASASI	207302634	48	1	2	1		1			
84	"OQDARYO TUMAN MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI BO‘LIMI" DAVLAT MUASSASASI	201738292	70	4	2			2			
85	"OQDARYO TUMAN AXBOROT-KUTUBXONA MARKAZI" DAVLAT MUASSASASI	306700983	20		1			1			
86	"OQDARYO TUMAN SPORT MAKTABI" DAVLAT MUASSASASI	207238301	77	2	1			1			

87	"OQDARYO TUMAN YO'LLARDAN FOYDALANISH KORXONASI" DAVLAT MUASSASASI	200724969	108		6	1		3	1	1	
88	"OQDARYO TUMANI OBODONLASHTIRISH BOSHQARMASI" DAVLAT MUASSASASI	206519750	209	11	14	2	1	8	1	1	1
89	"OQDARYO TUMANIDAGI ALOHIDA TA'LIM EHTIYOJLARI BO'LGAN (AQLI ZAIF) BOLALAR UCHUN 63-SONLI MAKTAB-INTERNAT" DAVLAT MUASSASASI	200725856	172	3	8	1	1	6			
90	"OQ-QORADARYO IRRIGATSIYA TIZIMI BOSHQARMASI" DAVLAT MUASSASASI	204691099	78	2	2			2			
91	OQDARYO TUMAN IRRIGATSIYA BO'LIMI	207263834	34		1			1			
92	"OZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG'LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI HUZURIDAGI SANITARIYA-EPIDEMIOLOGIK OSOYISHTALIK VA JAMOAT SALOMATLIGI QO'MITASINING OQ DARYO TUMAN BO'LIMI" DAVLAT MUASSASASI	202129757	83	1	2			2			
93	"USTOZ SIHATGOHI" DAVLAT MUASSASASI	204157563	70		3			3			

94	"OQDARYO TUMAN 1-SON POLITEXNIKUMI" DAVLAT MUASSASASI	206976374	78	2	2			2			
95	"OQDARYO TUMAN 2-SON POLITEXNIKUMI" DAVLAT MUASSASASI	202210174	100	3	2			2			
96	OQDARYO TUMAN 7-SON BOLALAR MUSIQA VA SAN'AT MAKTABI	206976398	62		2			2			
97	OQDARYO TUMAN 14-SON BOLALAR MUSIQA VA SAN'AT MAKTABI	207244833	43		2			2			
98	OQDARYO TUMANI MADANIYAT BO'LIMI MADANIYA VA AHOLI DAM OLISH MARKAZI	200725832	50		2			2			
99	OQDARYO TUMAN DAVLAT VETERINARIYA BO'LIMI	201942658	41		2	1		1			
100	OQDARYO TUMAN TIBBIYOT BIRLASHMASI	202155924	1493	13	35	4	1	29	1		
101	OQDARYO TUMAN BARKAMOL AVLOD BOLALAR MARKAZI	207060034	36		3			3			
102	OQDARYO O'RMON XO'JALIGI	203289510	93	1	4	1		3			

Xalq deputatlari Oqdaryo tumani Kengashining
2025-yil 25-oktabrdagi
VII-18-116-7-92-K/25 -son qaroriga
2-ilova

Oqdaryo tumanida 2026-yilda aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalarini ishga joylashtirish uchun xodimlarining ro‘yxatdagi o‘rtacha yillik soni yuz nafardan ortiqni tashkil etadigan xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar (*davlat ulushi 50 foizdan yuqori bo‘lgan korxonalar bundan mustasno)*** tomonidan majburiy zaxira qo‘yiladigan ish o‘rinlarining manzilli**
RO‘YXATI

T/r	Tashkilot nomi	Tashkilot STIRi	Shtat jadvali bo‘yicha xodimlarning umumiy soni	shundan,	Kelgusi yil uchun zaxiraga qo‘yiladigan ish o‘rinlari soni	shu jumladan:			
				nogironligi bo‘lgan shaxslar soni		Nogironligi bo‘lgan shaxslar	oilaviy (maishiy) zo‘ravonlikdan jabrlangan shaxslar	Kambag‘al oilalar reyestridagi oilalarning a’zolari	muqobil joylashtirish shakllarida tarbiyalangan yetim, ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan shaxslar
JAMI:			**415**	**2**	**26**	**2**	**2**	**20**	**2**
1	AFROSIYOB JENS TEKISTEL MCHJ	304960694	145		11	1	1	8	1
2	JENS TEKISTEL MCHJ	309055881	270	2	15	1	1	12	1